

Main features of Alisher Navoi's "Khazoyin ul-maoniy" collection

Student of Fergana State University, Faculty of Philology,
Uzbek Language Department, Group 24.87

Abdullayeva Aminaxon

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of Alisher Navoiy's collection "Khazoyin ul-Maoniy." It examines the poet's productivity and high artistic mastery, the traditions of divan compilation, particularly aspects related to Xusrav Dehlaviy, the structuring of the collection according to the stages of human life, as well as the diversity and quantitative composition of poetic genres within the collection.

Keywords: Alisher Navoiy, Khazoyin ul-Maoniy, four divans, productivity, artistic mastery, Xusrav Dehlaviy, life stages, genres, ghazal, rubai, textology, divan.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi asosiy xususiyatlari

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 24.87-guruh talabasi

Abdullayeva Aminaxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda shoir ijodining sermahsuldorligi va yuksak badiiy mahorati, devonchilik an'analari, xususan Xusrav Dehlaviy bilan bog'liq jihatlar, kulliyotning inson umrining bosqichlariga mos holda tuzilishi hamda undagi janrlar xilma-xilligi va miqdoriy tarkibi atroflicha yoritiladi.

Kirish so'zlar: Alisher Navoiy, Xazoyin ul-maoniy, chor devon, sermahsuldorlik, badiiy mahorat, Xusrav Dehlaviy, umr bosqichlari, janrlar, g'azal, ruboiy, matnshunoslik, devon.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida yuksak badiiy-estetik darajasi, mukammal kompozitsion tuzilishi

hamda janrlar xilma-xilligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kulliyot shoirning uzoq yillik ijodiy tajribasi mahsuli bo‘lib, unda uning poetik tafakkuri, badiiy mahorati va adabiy-nazariy qarashlari mujassamdir. Mazkur kulliyot 1492–1498-yillar oralig‘ida Husayn Boyqaroning taklifi asosida yaratilgan bo‘lib, unda shoirning turli davrlarda bitilgan barcha she‘rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kiritilgan asarlari ham qayta tartibga solingan. Ushbu majmua to‘rt devondan tashkil topgani bois xalq orasida “Chor devon” nomi bilan ham mashhurdir.

“Xazoyin ul-maoniy”ning qo‘lyozma an‘analari ham nihoyatda boy va rang-barangdir. Kulliyotning Sankt-Peterburg, Istanbul hamda Parij shaharlarida saqlanayotgan qadimiy nusxalari mavjud bo‘lib, ular orasida XV–XVI asrlarga oid muhim qo‘lyozmalar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur manbalar asosida taniqli navoiyshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan 1959–1960-yillarda kulliyotning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan. Ushbu matn keyinchalik Navoiy asarlarining akademik nashri — mukammal asarlar to‘plamining uchinchi va oltinchi jildlarini tayyorlashda asosiy manba vazifasini o‘tagan.

Mazkur maqolada “Xazoyin ul-maoniy”ning asosiy xususiyatlari to‘rtta muhim jihat asosida tahlil qilinadi: sermahsuldorlik va yuksak badiiyat, Xusrav Dehlaviy an‘analari bilan bog‘liqlik, umr bosqichlariga ajratish tamoyili hamda janrlar xilma-xilligi.

Alisher Navoiyning yuksak va sermahsul ijodi uning adabiy faoliyatining barcha bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo‘ladi. Shoir devon tuzish jarayoniga kirishishdan ancha avval turli janrlarda samarali ijod qilgani, uning poetik tafakkuri erta shakllanganini ko‘rsatadi. Navoiy o‘z davrida nihoyatda serqirra va sermahsul ijod qilgan adib sifatida tanilgan. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining mashhur “Boburnoma” asarida shunday deydi: “hech kim Navoiychalik “ko‘p” va “xo‘p” yozgan emas”. Darhaqiqat, “Xazoyin ul-maoniy” tarkibiga kiruvchi minglab g‘azallar, ruboiylar

va boshqa janrdagi asarlar shoirning nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham yuksak darajada ijod qilganini ko'rsatadi. Navoiy g'azallarida badiiy tasvir vositalari — tashbeh, isti'ora, tazod, iyhom, tajnis kabi san'atlar nihoyatda mahorat bilan qo'llanib, mazmun va shakl uyg'unligi ta'minlangan. Ayniqsa, g'azal kompozitsiyasidagi izchillik, matla'dan maqtagacha bo'lgan mantiqiy bog'liqlik shoir ijodining yetukligini ifodalaydi. Ayniqsa, Navoiy ijodining dastlabki davriga oid manbalar, xususan muxlislar tomonidan tuzilgan devonlar — shartli ravishda "Ilk devon" va "Oqquyunli muxlislar devoni" deb ataluvchi majmualar shoirning yoshligidanoq keng qamrovli va serqirra ijod bilan shug'ullanganini tasdiqlaydi. Bu holat uning ijodiy merosi tabiiy ravishda shakllanib borganini, ya'ni devon tuzish jarayoni oldindan tayyorlangan boy adabiy zamin asosida yuzaga kelganini anglatadi.

Navoiyning rasmiy devonlari bilan bog'liq masalalarda ham muhim ilmiy jihatlar kuzatiladi. Tadqiqotlarda ko'p bora qayd etilganidek, shoir tomonidan tartib berilgan ayrim devonlarda she'rlarning takrori uchrashi mumkin. Biroq mazkur takrorlar yuzaki o'xshashlikdan iborat bo'lib, asosan g'azallarning matla' qismida yaqqol seziladi. Matla'ning o'xshashligi esa sharq she'riyatida muayyan an'anaviy-estetik hodisa sifatida baholanadi. Shu bilan birga, g'azalning keyingi baytlari ko'pincha yangidan yaratilgan bo'lib, ular badiiy jihatdan boyitilgan, mazmunan takomillashtirilgan shaklda namoyon bo'ladi. Bu esa Navoiy ijodida o'z-o'zini takrorlash emas, balki mavjud poetik materialni qayta ishlash, mukammallashtirish va yangi badiiy darajaga ko'tarish jarayoni mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Shoirning adabiy merosi faqat rasmiy devonlar bilan chegaralanib qolmaydi. Uning tilshunoslikka oid asarlari, xususan nazariy-adabiy qarashlarini ifodalovchi risolalari, shuningdek tazkiralari tarkibida uchraydigan she'riy namunalari ham umumiy ijodiy merosning muhim qismini tashkil etadi. Garchi ushbu she'rlar bevosita devon tarkibiga kiritilmagan bo'lsa-da, ularning muallifi aynan Alisher Navoiy ekani

shubhasizdir. Bu esa shoir ijodining ko‘lamini yanada kengaytirib, uning badiiy tafakkuri faqat devonlar doirasidagina emas, balki ilmiy va adabiy-nazariy asarlarida ham izchil davom etganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Navoiy hayotining so‘nggi davriga qadar ijodiy faoliyatni to‘xtatmagan, balki doimiy ravishda yangi g‘azallar, ruboiylar va boshqa janrlarda asarlar yaratishda davom etgan. Bu holat Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan berilgan “ko‘p va xo‘p yozgan” degan ta‘rifning naqadar asosli ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, Navoiy ijodini faqat mavjud devonlar bilan chegaralab bo‘lmaydi, aksincha, uning butun hayoti davomida yaratilgan asarlar majmui yaxlit holda o‘rganilishi zarur. Navoiyning sermahsuldorligi haqida uning o‘zi ham “Chor devon” debochasida kuniga besh-oltita g‘azal yozganini qayd etadi. Bu ko‘rsatkich o‘z-o‘zidan shoirning favqulodda ijodiy qudratini namoyon etadi. Shu bilan birga, uning ilk devonlari shakllanish jarayoni ham alohida e‘tiborga loyiqdir. 1465–1466-yillarda tuzilgan muxlislar devoni shuni ko‘rsatadiki, Navoiy hali 20–25 yoshlaridayoq turli janrlarda yetarli darajada ijod namunalariga ega bo‘lgan. Biroq ushbu devonning shoirning o‘zi tomonidan emas, balki muxlislari tomonidan tartib berilgani bir tomondan uning kamtarligi va o‘zidan oldingi salafar — mumtoz adabiyot namoyandalariga nisbatan hurmatini bildirsa, ikkinchi tomondan, o‘sha davrdagi moddiy qiyinchiliklar bilan ham izohlanadi.

Mazkur kulliyotning muhim xususiyatlaridan yana biri — undagi badiiy mukammallik va kompozitsion yaxlitlikdir. Har bir devon an‘anaviy tarzda debocha bilan boshlanadi. “Debocha” atamasi aslida “peshonaga bog‘lanadigan ro‘mol” ma‘nosini anglatrsa-da, adabiyotda u asarning kirish qismi bo‘lib, unda muallifning estetik qarashlari, maqsadi va umumiy g‘oyaviy yo‘nalishi bayon etiladi. Navoiy debochalari esa oddiy kirish emas, balki butun kulliyotning nazariy asosini tashkil etuvchi muhim ilmiy-adabiy matnlar sifatida e‘tirof etiladi. Demak, Alisher Navoiyning

sermahsul ijodi uning dastlabki muxlislar devonlaridan tortib, rasmiy tartib berilgan kulliyotlari va hatto devonlarga kirmagan she'riy namunalarigacha bo'lgan keng adabiy qatlamni qamrab oladi. Bu esa shoirning ijodiy merosini kompleks tarzda, ya'ni janrlar xilma-xilligi, matnlar o'zgarishi va badiiy takomillashuv jarayoni nuqtai nazaridan o'rganish zaruratini belgilaydi.

Navoiy kulliyotining shakllanishida Xusrav Dehlaviy an'alarining ta'siri ham seziladi. Ma'lumki, Navoiygacha to'rt va undan ortiq devon tuzish tajribasi aynan Dehlaviyga xos bo'lgan. Navoiy uning to'rt devoni bilan tanish bo'lib, o'z kulliyotini ham shu asosda to'rt qismga ajratgan. Ayrim tadqiqotchilar agar Navoiy Dehlaviyning besh devonini to'liq bilganida, ehtimol, o'z kulliyotini ham besh qismga ajratgan bo'lur edi, degan ilmiy farazni ilgari suradilar. Bu esa Navoiy ijodida an'ana va novatorlikning o'zaro uyg'unligini ko'rsatadi. Kulliyotning shakllanishi bilan bog'liq yana bir muhim jihat — Abdurahmon Jomiy bilan bog'liq rivoyatdir. Unga ko'ra, dastlab Jomiy inson umrini uch bosqichga ajratgan holda devon tuzish g'oyasini ilgari suradi. Biroq, Navoiy bu tizimni mukammal deb hisoblamay, uni to'rt bosqichga ajratish zarurligini ta'kidlaydi. Natijada, aynan Navoiy tomonidan to'rt devondan iborat mukammal kulliyot yaratiladi. Bu holat Navoiy ijodiy tafakkurining mustaqilligi va nazariy-estetik qarashlarining yetukligi dalilidir.

Kulliyotning kompozitsion tuzilishi o'ziga xos falsafiy-estetik tamoyilga asoslangan bo'lib, Alisher Navoiy unda inson umrini fasllarga qiyoslash orqali badiiy tizim yaratadi. Jumladan, 7–8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davr “umr bahori” sifatida talqin etilib, “G'aroyib us-sig'ar” (“Bolalik g'aroyibotlari”) devonida aks ettirilgan. 20–35 yosh oralig'i “umr yozi” deb baholanib, “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) devonida mujassam topgan. 35–45 yosh “umr kuzi” sifatida “Badoye' ul-vasat” (“O'rta yosh go'zalliklari”)da ifodalangan bo'lsa, 45–60 yosh “umr qishi”ga tenglashtirilib, “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) devonida o'z aksini topgan.

Bunday tasnif inson hayotining ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy kamolot bosqichlarini poetik shaklda yoritish imkonini beradi. Aynan 60yoshgacha talqin qilingani payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) yoshiga nisbat qilib olingan hijriy yil va milodiy yil hisobida 60-63yoshni ko'rsatishi bo'yicha asos sifatida olib yoritgan deyishimiz mumkin.

Har bir devonga 650 tadan g'azal kiritilgani, shuningdek, jami o'n olti turdagi she'riy janrlarning jamlangani kulliyotning hajm va mazmun jihatidan nihoyatda boy ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, devonlarning Husayn Boyqaro amri bilan tartibga solingani, har bir she'r hukmdor nazaridan o'tib, uning maslahat va tavsiyalari asosida joylashtirilgani ushbu asarlarning yuksak darajadagi saralash va tahrir jarayonidan o'tganini ko'rsatadi. Navoiy bu holatni badiiy talqin etib, o'z kulliyotini "ma'nolar xazinasi" — ya'ni "Xazoyin ul-maoniy" deb ataydi va bu nomning bevosita hukmdor tafakkuri va didi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi:

Bu bahrki, ganji lomakoniy dedilar,

Har qatrasin obi zindagoniy dedilar.

Shah maxzani tab'idin nishoni dedilar —

Kim, ani "Xazoyin ul-maoniy" dedilar.

Biroq devonlardagi she'rlar qat'iy xronologik tartibda joylashtirilmagan. Shoirning o'zi ham Husayn Boyqaroga yo'llagan maktubida "burung'i ikki devon ash'ori bila so'ngra aytilg'onlari bila qo'shub, tartib bila to'rt ayrildi" deya ta'kidlaydi. Bu esa devonlar nomini shartli ravishda, ya'ni asarlarning ruhiyati va mazmuniy yo'nalishiga ko'ra tushunish zarurligini anglatadi. Shoir har bir asarning ruhiyati, badiiy ohangi va mazmuniy yo'nalishiga ko'proq e'tibor qaratgan va bu unga ulkan muvaffaqiyat olib kelgan. Shu sababli ayrim yoshlik davrida yozilgan she'rlarning keyingi devonlarga, yoki aksincha, keksalik davrida bitilgan asarlarning avvalgi devonlarga kiritilganini kuzatish mumkin. Bu esa Navoiy ijodida vaqt mezonidan ko'ra badiiy-estetik mezon ustuvor bo'lganini anglatadi. Navoiy o'zining "Xamsat ul-

mutahayyirin” asarida har bir devon haqida alohida to‘xtalib, ularning mazmun-mohiyatini badiiy tarzda izohlaydi. Unga ko‘ra, “G‘aroyib us-sig‘ar”da yoshlikning jo‘shqin tuyg‘ulari, “Navodir ush-shabob”da yigitlik shiddati, “Badoye’ ul-vasat”da yetuklik davrining badiiy kamoloti, “Favoyid ul-kibar”da esa hayotiy tajriba va hikmatlar mujassamdir. Bu esa kulliyotning nafaqat badiiy, balki chuqur falsafiy tizimga ega ekanini ko‘rsatadi. Janrlar ham shunga ko‘ra taqsimlangan. Mazkur kulliyotning to‘rt devondan iboratligi sababli u “Chor devon” nomi bilan mashhur bo‘lib, unda Sharq she‘riyatiga xos 16 ta janr jamlangan. Birinchi devon — “G‘aroyib us-sig‘ar” 650 g‘azal, 3 muxammas, 1 mustazod, 1 tarje‘band, 1 masnaviy, 50 qit‘a va 133 ruboiydan iborat. Ikkinchi devon — “Navodir ush-shabob” 650 g‘azal, 3 muxammas, 1 mustazod, 1 musaddas, 1 tarje‘band, 1 tarkibband, 50 qit‘a va 52 muammoni o‘z ichiga oladi. Uchinchi devon — “Badoye’ ul-vasat” tarkibida 650 g‘azal, 2 muxammas, 2 musaddas, 1 mustazod, 1 tarje‘band, 1 qasida, 60 qit‘a, 10 lug‘z va 13 tuyuq mavjud. To‘rtinchi devon — “Favoyid ul-kibar” esa 650 g‘azal, 2 muxammas, 1 mustazod, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarje‘band, 1 soqiynoma, 50 qit‘a va 86 farddan tashkil topgan. Shunday qilib, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida jami 2600 g‘azal va boshqa janrlar bilan birga 3132 ta she‘r jamlangan bo‘lib, ular taxminan 44 900 misradan iborat ulkan poetik merosni tashkil etadi. Ushbu jihatni ilmiy asosda o‘rganib, devonlardagi she‘rlarning nisbiy xronologiyasini aniqlashga harakat qilgan olimlardan biri ham Hamid Sulaymonov hisoblanadi.

Kulliyot tarkibida muhim o‘rin tutuvchi debocha ham alohida ilmiy qimmatga ega. Ushbu debocha “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining boshlanish qismida joylashgan bo‘lib, unda novatorlik unsuri sifatida g‘azal janri bilan boshlanadi. Bungacha mumtoz adabiyotda g‘azal bilan emas, balki asar bag‘ishlangan hukmdor madhi kelardi. Debochada shoir kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi, undagi devonlarning mazmun-mohiyati, shuningdek, o‘zining adabiy-estetik qarashlarini bayon etadi. Shu

bilan birga, unda muallifning hasbi holi — ya’ni o‘z hayot yo‘li va ruhiy kechinmalari ham aks etadi. E’tiborlisi, Navoiy ushbu fikrlarni umumlashtirish va xulosalashda ruboiy janridan samarali foydalanib, debochaga jami 30 ta ruboiyni kiritadi.

Kulliyotning har bir devoni an’anaviy tarzda Alloh hamdi bilan boshlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir devondagi dastlabki besh g‘azal hamd yo‘nalishida bo‘lib, ularning to‘rttasi tavhid, beshinchisi esa munajat mazmuniga bag‘ishlangan. Bu esa shoirning diniy-falsafiy qarashlari uning butun ijodiga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining “Ashra‘at min aksi shamsil ka’si anvor ul-hudo...” matla’i bilan boshlanuvchi ilk g‘azali alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u Alibek Rustamov tomonidan “fotiha g‘azal” sifatida baholangan. Ushbu g‘azalda ifodalangan g‘oyalar nafaqat birinchi devon, balki butun kulliyot uchun konseptual asos vazifasini bajaradi. Unda insonning yaratilishi, borliq mohiyati, Haq bilan bog‘liqlik kabi muhim falsafiy masalalar yoritilgan. “Navodir ush-shabob” devonining ilk g‘azalida esa ilohiy ishq va husn talqini markaziy o‘rinni egallaydi. “Badoye’ ul-vasat” devonining boshlanish g‘azalida borliq go‘zalligi va yaratuvchining san’ati nozik tashbehlar orqali madh etiladi. “Favoyid ul-kibar” devonida esa hayotiy tajriba, ijtimoiy kuzatishlar va falsafiy xulosalar ustuvor bo‘lib, undagi g‘azallar chuqur mushohada mahsuli sifatida ajralib turadi. Umuman olganda, kulliyotdagi g‘azallar oshiqona, orifona va rindona yo‘nalishlarga mansub bo‘lsa-da, ular joylashgan devonning ruhiga mos holda tanlangan. Xususan, dastlabki devonlarda yoshlikka xos jo‘shqinlik va hissiylik ustun bo‘lsa, so‘nggi devonda hayotiy tajriba va ijtimoiy tanqid kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti nafaqat uning shaxsiy ijodiy kamolotining eng yuqori bosqichi, balki o‘zbek va umuman Sharq mumtoz adabiyotining rivojida muhim burilish yasagan yirik adabiy hodisadir. Ushbu asar o‘zining sermahsuldorligi, badiiy mukammalligi, kompozitsion

yaxlitligi, falsafiy teranligi va janrlar rang-barangligi bilan ilmiy tadqiqotlar uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi hamda devonchilik an’anasining eng yetuk va mukammal namunasi sifatida alohida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy ensiklopediyasi(4-jild), lug‘at. – Toshkent. 2024. 480b.
2. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov Navoiyshunoslik (1-kitob), darslik. – Toshkent: “Tamaddun”. 2018. 520b.
3. R. Vohidov, H. Eshonqulov O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zYU adabiyot jamg‘armasi. 2006. 528b.
4. V. Rahmonov, O.Fayzullayeva Navoiyshunoslik, o‘quv-uslubiy majmua. – Guliston. 2021. 388b.